



14. Ko'p xonali sonlarni taqqoslash

Yondosh mavzu:
Samarqand viloyati

Sonlarni taqqoslash,
sinflar va xonalar





1. Diagrammadagi ma'lumotlarni o'qing.



Qayerda eng ko'p aholi yashaydi?



2. Sonlarni yozing va ularni taqqoslang. Qaysi to'plamda kubiklar ko'p?



14. Ko'p xonali sonlarni taqqoslash



3. Sonlarni o'qing. Jadvaldagi eng katta son qaysi? Nima uchun?

Millionlar			Minglar			Birlar		
Yuzlar	O'nlar	Birlar	Yuzlar	O'nlar	Birlar	Yuzlar	O'nlar	Birlar
			9	9	9	9	9	8
			9	9	9	9	9	9
		1	0	0	0	0	0	0

Agar sonlarning raqamlar miqdori turlicha bo'lsa, raqamlari ko'p son katta bo'ladi.

$$28\ 937 < 289\ 370 \quad 98 < 123 \quad 9\ 999 < 10\ 000$$

Agar ko'p xonali sonlarning raqamlari miqdori teng bo'lsa, ularni yuqori xonadan boshlab xonalar bo'yicha taqqoslaymiz. Bunda qaysi sonning mos xona birligi katta bo'lsa, o'sha son katta bo'ladi.

$$3\ 450 < 3\ 540 \quad 65\ 100\ 239 < 65\ 100\ 241$$



4. Taqqoslang.

$340 \square 600$

$280 \square 267$

$67 \square 607$

$1\ 000 \square 999$

$1\ 000\ 000 \square 999\ 999$

$2\ 830 \square 2\ 083$

$75\ 530 \square 75\ 496$

$834\ 921 \square 98\ 567$

$70\ 057 \square 70\ 570$



5. 1925-yilda Samarqand O'zbekistonning poytaxti bo'lgan. Bu son raqamlarining o'rnini almashtirib, eng katta va eng kichik to'rt xonali sonlar tuzing.



6. Sonlardagi ba'zi raqamlar yulduzcha bilan almashtirildi. Ularni taqqoslay olasizmi?

$627* \square 6271$


$283** \square 27***$

$9** \square 1****$

14. Ko'p xonali sonlarni taqqoslash



7. Sayyohlar avtobusi Toshkent – Samarqand – Shahrissabz – Qarshi – Toshkent yo'nalishi bo'ylab yurdi. Chizma bo'yicha avtobus necha kilometr yurganini aniqlang.



8. Yahyo 5, 6, 7, 8, 9 raqamlari yordamida turli besh xonali sonlarni yozdi, bu sonlarda raqamlar takrorlanmaydi. Keyin bu sonlarni o'sish tartibida yozdi. Yozuvda 79 865 sonidan keyin qaysi son keladi?



9. Sayyoh Toshkentdan Samarqandgacha 312 km, Samarqanddan Buxorogacha esa undan 57 km kamroq yo'l bosib o'tgan. Sayyoh bosib o'tgan umumiy masofa qancha?



10. a) Sonlarni taqqoslang.

475 470 65 610

1 000 000 99 999

390 757 530 772

100 280 106 798

1 000 000 999 999

10 834 921 12 377 567

- b) Sonlarni o'sish tartibida yozing.

99 998, 315, 3 015, 23 009, 210, 3 150, 100 000